



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA MIGRATSIYA JARAYONLARINING TAHLILI

Abdullayeva G.Sh.

Toshkent Oriental universiteti, katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: xalqaro migratsiya, migrant, migratsiya ko'rsatkichlari, immigrant, emigrant, migratsiya aylanmasi, mexanik o'sish.

Ключевые слова: международная миграция, мигрант, миграционные показатели, иммигрант, эмигрант, миграционный оборот, механический рост.

Key words: international migration, migrant, migration indicators, immigrant, emigrant, migration turnover, mechanical growth.

Kirish. O'zbekiston hozirda Markaziy Osiyoda mehnat va ta'lim migratsiyasining eng yirik eksportchisi hisoblanadi. Jahon xo'jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borgan sayin, mehnat migratsiyasi ham tobora intensivlashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o'rtasidagi farqlarning uzluksiz chuqurlashib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki mehnat migratsiyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'ziga munosib ish va yuqori daromad topish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi bo'lib, iqtisodiyoti og'ir ahvolda bo'lgan kam rivojlangan mamlakatlarda bandlik va ish haqining o'tkir muammolarini hal etishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Tabiiyki, siyosiy mustaqillikka erishgan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda o'tmishdan qolgan merosning og'ir muammolarini uzil-kesil hal etish zaruratiga duch kelgan O'zbekiston ham XX asrning fenomeni – mehnat migratsiyasi jarayonlaridan chetda qolish imkonini topolmadi.

Globalashuv sharoitida jahonda migratsiya jarayonlari mamlakatlar va mintaqalarning notekis rivojlanishi tufayli ular ijtimoiy-iqtisodiy nosimmetriklik bilan ajralib turadigan holda juda katta nisbatlarga ega bo'lmoqda. Migratsiya jarayonlarining nosimmetrikligi aholining hududlar o'rtasida qayta taqsimlanishiga, aholining tarkibiy xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi va bu o'z navbatida mamlakatlar va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun migratsiya jarayonlarining mintaqaviy assimetriyasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatini o'rganish, ularni rivojlantirish va tartibga solishning hozirgi holati va tendentsiyalarini o'rganish iqtisodiy tadqiqotlarning alohida yo'nalishini tashkil etadi.

Tadqiqot metodikasi. Tashqi va ichki migratsiya jarayonlari va ularning muammolarini hal qilish haqidagi ilmiy tadqiqotlar bilan tanishish, statistik ma'lumotlar asosida migratsiya ko'rsatkichlarini hisoblash va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Aholining harakati ko'rsatkichlari mazmunan bir-biridan farq qiluvchi ikki guruh ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Birinchi guruhga aholining tabiiy harakatini,

tug'ilishi va o'lishini, nikohdan o'tganlar va ajralganlar sonini, ikkinchi guruhga mexanik harakatini ya'ni, aholining migratsiyasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar kiradi. Aholi soni faqat tabiiy harakat natijasida o'zgarasdan, balki mexanik harakat natijasida ham o'zgaradi. Aholining mexanik harakati migratsiya ko'rsatkichi nomi bilan yuritiladi.

Migratsiya oqimlarining hajmi, tarkibi va yo'nalishi ma'lum davrdagi asosiy ma'lumot manbai bo'lib, migratsiyaning joriy hisobi va aholi ro'yxati ma'lumotlari hisoblanadi.

Aholi joriy migratsiyasiga talablar:

1. Hisob shunday tashkil etilishi kerakki, unda har qanday paytda aholining tabiiy harakatini ham hisobga olgan holda aholi soni haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish.

2. Bu hisob migratsiyaning aholi va tuman mehnat resurslari tarkibiga ta'sirini, migratsiya jarayonlari tezligini aniqlash demografik prognozlar uchun asos bo'la olishi lozim.

Aholi migratsiyasi to'g'risidagi statistik va idoraviy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4262-sonli Farmoni hamda Ichki ishlar idoralari tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladigan "Kelganlik" va "Ketganlik" to'g'risidagi statistik hisobga olish varaqlari asosida shakllantiriladi.

Migratsiya jarayonlari u yoki bu mintaqa aholi sonini o'zgartiribgina qolmay, uning jinsi, yoshi, ma'lumot darajasi, kasbi, millati va h.k. bo'yicha tarkibini ham o'zgartiradi. Migratsiya jarayonlarining ushbu jihatlari o'rganish uchun sanab o'tilgan tavsiflar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar tarkibi ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Migrantlar jalb qilish markazlari sanalgan mintaqalarda aholi umumiy soni ko'payishdan tashqari aholining qarish jarayoni sekinlashadi, chunki migrantlar orasida yoshlar va mehnatga layoqatli shaxslar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aholining chiqib ketuvchi oqimi kuchli bo'lgan mintaqalarda migratsiya teskari samara beradi. Qochqinlar va majburiy ko'chib ketganlar uchun o'ziga xos demografik va ijtimoiy tarkib xosdir. Global tadqiqotlarga ko'ra, migrantlar asosan mehnat unumdorligi va ta'limi yuqori bo'lgan yosh mehnatkash aholidir. Shu bois, tashqi va ichki migratsiya natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotish va daromadlarni baholash va uni monitoring qilish, o'lchash va tartibga solishning sifatli mexanizmlarini ishlab chiqish eng muhim vazifalardan biridir.[2]

Migratsiya intensivligi migratsiya koeffitsientlari bilan o'lchanib, ulardan tahlilda foydalanish aholi tabiiy harakati koeffitsientlaridan jiddiy farq qiladi. Tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik hodisalar bitta belgilangan aholi yig'indisi doirasida ro'y beradi. Migratsiya esa doimo bir vaqtning o'zida ikki xil hududiy aholi jamiyati bilan bog'liq bo'ladi. Aholi migratsiyasi mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi:

Migratsiya mutloq ko'rsatkichi. Migratsiya mutloq ko'rsatkichi - migratsiya saldosi ham deyiladi va quyidagicha hisoblanadi.

$$S_M = A_{ket} - A_{ket} \quad (1)$$

bu yerda A_{ket} - ko'chib kelgan aholi soni, A_{ket} - ko'chib ketgan aholi soni.

Migratsiyaning intensivlik ko'rsatkichlari har 1000 kishiga hisoblanadigan va yillik o'rtacha aholiga nisbatan olinadigan ko'rsatkichlardir.

- Ko'chib kelish koeffitsienti (K_{ket}):

$$K_{ket} = \frac{A_{ket}}{A} \cdot 1000 \quad (2)$$

- Ko'chib ketish koeffitsienti (K_{ket}):

$$K_{ket} = \frac{A_{ket}}{A} \cdot 1000 \quad (3)$$



-Migratsiya aylanmasi koeffitsienti (K_{MA}):

$$K_{MA} = \frac{A_{ket} + A_{ket}}{\bar{A}} \cdot 1000 \quad (4)$$

-Mexanik o'sish koeffitsienti (K_{MO}):

$$K_{MO} = \frac{A_{ket} - A_{ket}}{\bar{A}} \cdot 1000 \quad (5)$$

-Migratsiya samaradorligini (K_S):

$$K_S = \frac{A_{ket} - A_{ket}}{A_{ket} + A_{ket}} \cdot 1000 = \frac{S_M}{MA} \cdot 1000 \quad (6)$$

Bu yerda, \bar{A} - o'rtacha aholi soni,

MA - migratsiya aylanmasi (ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar yig'indisi)

Migratsiyaning berilgan tavsiflari migratsiya jarayonlarini tahlil qilish maqsadida davlat statistikasida qo'llaniladigan umumiy qabul qilingan standart ko'rsatkichlar tizimini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar bir qator maxsus hisob-kitoblarni amalga oshirishda, modellashtirish va demografik prognozlashda ham qo'llaniladi [3].

O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ochiq ma'lumotlaridan foydalangan holda, 2018-2022 yillar uchun ushbu ko'rsatkichlarni hisoblaymiz va olingan natijalarni 1- jadvalga joylaymiz.

Ketganlar koeffitsiyenti (K_{ket}) -2018 yil: $K_{ket} = \frac{A_{ket}}{\bar{A}} \cdot 1000 = \frac{174,8}{32656,7} \cdot 1000 = 5,4 \%$

$$2019 \text{ yil: } K_{ket} = \frac{A_{ket}}{\bar{A}} \cdot 1000 = \frac{169,5}{33255,5} \cdot 1000 = 5,1\%$$

Keying yillar ham huddi shu tartibda hisoblanadi.

Kelganlar koeffitsiyenti (K_{kel}) 2018 yil: $K_{kel} = \frac{A_{kel}}{\bar{A}} \cdot 1000 = \frac{160,1}{32656,7} \cdot 1000 = 4,9 \%$

$$2019 \text{ yil: } K_{kel} = \frac{A_{kel}}{\bar{A}} \cdot 1000 = \frac{158,9}{33255,5} \cdot 1000 = 4,8 \%$$

Keying yillar ham huddi shu tartibda hisoblanadi.

Mexanik o'sish koeffitsiyenti (K_{MO})

$$2018 \text{ yil: } K_{MO} = \frac{A_{ket} - A_{ket}}{\bar{A}} \cdot 1000 = \frac{160,1 - 174,8}{32656,7} \cdot 1000 = -0,4\%$$

$$2019 \text{ yil: } K_{MO} = \frac{A_{ket} - A_{ket}}{\bar{A}} \cdot 1000 = \frac{158,9 - 169,5}{33255,5} \cdot 1000 = -0,3\%$$

O'zbekiston Respublikasi aholisining mexanik harakati ko'rsatkichlari dinamikasi 2018- 2022 yillar uchun (ming kishi)

1-jadval

Yillar	2018	2019	2020	2021	2022
Aholining o'rtacha soni	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3
Ko'chib kelganlar soni	160,1	158,9	191,1	256,8	214,8
Ko'chib ketganlar soni	174,8	169,5	203,6	275,1	221,3
Migratsiya saldosi	-14,7	-10,6	-12,5	-18,3	-6,5
Ko'chib kelganlar koeffitsienti ‰	4,9	4,8	5,6	7,4	6,1
Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti ‰	5,4	5,1	6	7,9	6,3
Mexanik o'sish koeffitsiyenti ‰	-0,4	-0,3	-0,37	-0,5	-0,18

Manba: O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ochiq ma'lumotlari va muallif tomonidan hisoblangan ko'rsatkichlar asosida.

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2018 yilda ko'chib kelganlar soni 160,1 ming kishi va ko'chib ketganlar soni 174,8 ming kishi bo'lib, migratsiya saldosi -14,7 ga teng bo'lgan. 2022 yilga kelib esa, ko'chib kelganlar soni 214,8 ming kishi va ko'chib ketganlar soni 221,3 ming kishi bo'lib, migratsiya saldosi -6,5 ga teng bo'lgan. 2022 yidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni tenglashyotganini ko'rish mumkin.

Makroiqtisodiyotning bo'lajak istiqbolini oldindan rejalashtirish, eng avvalo, aholining kelgusidagi o'zgarishini istiqbolini aniqlashdan boshlanadi. Aholining kelajakdagi ko'payishini begilash: kelgusida shakllanadigan demografik tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash; hududiy miqyosida aholining tabiiy ko'payishi va migratsiya ko'lamini tahmin qilish; mehnat tarkibiy o'zgarishini oldindan tahlil qilishdan iboratdir. Hisoblab chiqilgan ko'rsatkichlar orasida aholining mexanik o'sishi koeffitsienti eng ko'p axborot beradigan ko'rsatkich hisoblanadi, zamonaviy vaziyatni baholash uchun bu ko'rsatkich qiymatini dinamikada taqqoslash qulay bo'ladi:

- 2018 yil, -0,4;
- 2019 yil, -0,3;
- 2020 yil, -0,37;
- 2021 yil, -0,5;
- 2022 yil, -0,18.

O'zbekistonda migratsiya jarayonlari bir qator sabablar bilan bog'liq. Tashqi migratsiya uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarning, respublika ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatdagi migratsiya jarayonlarning, eng ayniqsa tashqi migratsiyaning keskin o'zgarishiga, immigrantlar salmog'ining emmigrantlarga qaraganda past tendensiyasiga ega ekanligiga sabab bo'luvchi eng katta omil – bu siyosiy mustaqillikka erishishidir. Inflyatsiya darajasining o'sishi, ishsizlikning oshishi, aholining turmush darajasining pasayishi kabi bir qator muammolarga olib keldi. Boshqa MDH mamlakatlari singari O'zbekistonda aholining ma'lum bir qismi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida mehnat migranti sifatida boshqa mamlakatlarga ketishga majbur bo'lmoqda. Bu ayniqsa, qishloq joylarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi bandlik uchun yetarlicha imkoniyatlarni ta'minlashga qodir emas, bu qishloq ayollari va erkaklarini, ayniqsa yoshlarni migratsiyaga majbur qiladi. Yoshlarning ketishi esa, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan demografik vakuumni keltirib chiqarmoqda.[4]

Xulosa va tavsiyalar. O'zbekistondagi migratsiya muammolari yechimlari turli sohalar uchun qo'llaniladigan har xil usullar orqali hal etish mumkin: Ishsizlikni qisqartirish, yoshlarni ta'lim olish va kasb-hunar boshqarmalari orqali kasb olish va ish topishni qo'llab-quvvatlash, ta'lim sohasini rivojlantirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalar orqali yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirish, migratsiya va fuqarolik sohasidagi qonunlar va tartibotlarni yangilash, qisqa vaqt ichida masalani hal etish uchun qo'llash, Xalqaro tashkilotlar, masalan, Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) bilan hamkorlik qilish va ularning takliflaridan va tajribalaridan



foydalanish, O'zbekistonga qaytib kelgan fuqarolar bilan muloqot olib borish va ularni o'zaro integratsiya qilish uchun dasturlar tashkil etish, madaniy aloqalarni rivojlantirish.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Nazariya va amaliyot. Darslik.– T.: Fan, 2019 yil. - 590 b.
2. Statistika bo'yicha praktikum: o'quv qo'llanma // Shodiev X. va Xabibullaev I. tahriri ostida.. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2015.-336 b.
3. “Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti” Raxmatullayeva F.M., Abdulloev A.J., Giyazova N.B., Narzullayeva G.S. O'quv qo'llanma, I qism “Durdona” nashriyoti, Buxoro- 2021.
4. Alayeva G.T., Delovarova L.F., Dinorshoyev A.M., Jampeisov D.A., va boshqalar. “Qaytish migratsiyasi, xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy o'ziga xos xususiyatlari”, O'quv qo'llanmasi, Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMgT) – BMT migratsiya Agentligi, Almati, 2020.
5. Abashin, S., Returning home: “Family and migration scenarios in Uzbekistan”, Ab Imperio, 2015, vol. 2015, no. 3, pp. 125–165.
6. Evchenko N.N. MDH davlatlaridan Rossiyaga xalqaro immigratsiya: dinamika va Mintaqaviy farqlash // Universitetlar yangiliklari. Shimoliy Kavkaz mintaqasi. Seriya: Ijtimoiy fanlar. 2018 yil. 2-son (198). 127–135-betlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
8. www.cisstat.com–MDHning Davlatlararo statistika qo'mitasi rasmiy sayti
9. www.undp.org – BMTning taraqqiyot dasturi sayti
10. www.gks.ru– Rossiya Davlat statistika federal hizmati rasmiy sayti
11. www.worldbank.org– Jahon banki rasmiy sayti
12. www.inf.org–Xalqaro valyuta fondi rasmiy sayti

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada O'zbekistondagi migratsiya jarayonlari haqida ma'lumot berildi. Migratsiya ko'rsatkichlari oxirgi besh yillik ma'lumotlar bo'yicha hisoblab chiqildi va ahamiyati tahlil qilindi. Ozbekistondagi migratsiya muammolari va ularning yechimlari muhokama qilindi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о миграционных процессах в Узбекистане. Показатели миграции были рассчитаны на основе данных за последние пять лет и проанализирована их значимость. Обсуждались миграционные проблемы в Узбекистане и пути их решения.

SUMMARY

This article provides information about migration processes in Uzbekistan. Migration indicators were calculated based on the data of the last five years and their importance was analyzed. Migration problems in Uzbekistan and their solutions were discussed.